

**MUSIQIY TA'LIM FANLARINING UMUMIY TA'LIM FANLARI BILAN
ALOQADORLIK JIXATLARI.**

Islamov Baxtiyar Anvarovich

*Andijon ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
Damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi bo'limi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada, umum ta'lif maktablari fanlarining musiqa fani bilan uzviy bog'liq jihatlari, shaxsning kamol topishida musiqa san'atining ahamiyati, ijodkorlik qobiliyatini oshirishda musiqiy ohanglarning ahamiyatli jihatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'z: cholg'u asbobi, ijrochilik mahorati, elementar nazariya, solfedjio, garmoniya, musiqiy termin, ijrochilik san'ati, cholg'ushunoslik, cholg'ulashtirish.

**ОСОБЕННОСТИ СВЯЗИ МУЗЫКАЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ПРЕДМЕТОВ С
ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПРЕДМЕТАМИ.**

Исламов Бахтияр Анварович

*Андижанская специализированная школа искусств
Секция духовых и ударных инструментов*

Аннотация: В данной статье освещаются аспекты общеобразовательных школьных дисциплин, неразрывно связанных с музыкой, значение музыкального искусства в становлении личности, значение музыкальных тонов в развитии творческих способностей.

Ключевое слово: инструмент, исполнительское мастерство, Элементарная теория, сольфеджио, гармония, музыкальный термин, исполнительское искусство, инструментоведение, инструментовка.

**CHARACTERISTICS OF COMMUNICATION OF MUSICAL
EDUCATIONAL SUBJECTS WITH GENERAL EDUCATIONAL SUBJECTS.**

Islamov Bakhtiyor Anvarovich

Andijan Specialized Art School

Brass and Percussion Instruments Section

Annotation: In this article, the relevant aspects of the subjects of general educational schools are highlighted, which are inextricably linked with the science of music, the importance of the art of music in the maturation of an individual, and the significant aspects of musical tones in increasing creativity.

Keyword: instrument, performance skill, elementary theory, solfedgio, harmony, musical term, performance art, Instrumentation, Instrumentation.

Bugungi yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangani barchamizga ayondir. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Amalga oshirilayotgan islohotlarning, avvalo, maktabgacha ta’lim va tarbiya sohasidan boshlanishi globallashuv jarayonida bolalar tarbiyasida eng asosiy omil qilib belgilandi, maktab ta’limini tubdan yaxshilash va uning sifatini oshirish, o‘qituvchilarga munosib sharoitlar yaratish borasidagi islohotlar jadal davom etmoqda. Islohotlar jarayonida turli mulohazalar, fikrlar, yondoshuvlar, babs munozaralar, tahlillar e’tiborga olinib, eng mukammal deb topilgan yechim ta’limni omili deb qabul qilinmoqda. Islohotlarni kuzatib borish orqali, amalga oshirilayotgan jarayonlarga o‘z fikrlarimni bildirishni ma’qul deb topdim.

Turli vazirliklar tasarrufidagi kasb – hunar kollejlari, akademik litseylar, ixtisoslashtirilgan maktablar o‘z faoliyatlarini maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan qarorlar, ko‘rsatmalar, o‘quv dasturlari va boshqa me'yoriy xujjatlarga tayangan holda tashkil etadilar. Bu albatta majburiy ta’lim tizimining har bir soha bilan uzviy bog‘liqligini belgilaydi. Zero qonunchiligidan har qanday soha egasi bepul majburiy umumiyy ta’limni olishi shart qilib belgilab qo‘yilgan. Shunday yo‘nalishlardan biri san’atga ixtisoslashtirilgan maktablardir. Ushbu maktablarda mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda umumta’lim fanlari ham o‘zlashtirilib boriladi. Albatta fanlarni yaxshi-yomonga, kerakli-keraksizga ajratishlik nodonlik hisoblanadi. Har bir o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z saviyalarini, dunyoqarashlarini, ma’naviyatini muntazam ravishda oshirib borishlari joyizdir. O‘quvchilarni har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib yetishishlari esa o‘qituvchining maxoratiga, san’atiga bevosita bog‘liqdir. O‘qituvchilar va o‘quvchilar to‘g‘risidagi munosabatlar va fikrlar alohida boshqa katta mavzudir. Biz hozircha san’at, aniqrog‘i musiqa yo‘nalishi bilan umumta’lim fanlari o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida fikr yuritamiz.

O‘tilayotgan mutaxassislik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi degan tushuncha Davlat ta’lim standartlari va ushbu xujjat asosida ishlab chiqilgan ta’lim tarmoq standartlarida aniq qilib belgilab qo‘yilgan. Bu yerda mutaxassislik fanining boshqa fanlar bilan aloqadorlik jixatlari qanday degan savolga javob izlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, fleyta (har qanday cholq‘u asbobi bo‘lishi mumkin) cholq‘u asbobini o‘rganishdan maqsad nima? Maqsad yuksak ijrochilik mahoratiga ega bo‘lishdan iboratdir. Yuksak ijrochilik maxoratiga erishishlik uchun albatta birinchi navbatda musiqaning elementar nazariyasini puxta egallah, solfedgio, musiqa adabiyoti, notani varoqdan o‘qish, ansambl, garmoniya fanlarini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi lozim. Musiqaning elementar nazariyasi fani notalarni tuzilishi, cho‘zimi,

ritmik jixatlari, o'lchovi, musiqiy terminlar, belgilar v.x.k. larni o'rgatishga muljallangan bo'lsa, solfedjio fani o'quvchini oxanglarni eshitish, farqlash, eslab qolish, kuylash, ritmni xis qilish sezgilarini rivojlantirishga qaratilgan. Musiqa adabiyoti va tarixi esa kompozitorlar ijodi, musiqa san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlari, yaratilgan asarlarni mazmun mohiyatini o'rganishga qaratilgan. Notani varoqdan o'qish fani notalarni bir qarashda to'g'ri, ravon, tez va xatosiz ijro etish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Ansambl fani birgalikda (ikki yoki undan ortiq ijrochi) jo'r bo'lib ijro etish, tovushlar mutanosibligini xis qilishga, garmoniya fani esa tovushlarning uyg'unligini eshita bilish, ularni farqlay olishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytalganda oddiy ijrochilik san'atini egallah uchun bir necha fanlarni o'zlashtirish kerakligi taqazo etiladi. Agar qo'shimcha tarzda dirijyorlik mutaxassisligi egallanishi kerak bo'lsa, yuqorida ko'rsatib o'tilgan fanlar bilan birga cholg'ushunoslik, cholg'ulashtirish (moslashtirish), partitura o'qish kursi, pedagogika, psixologiya fanlarini ham o'zlashtirish kerak bo'ladi. Dirijerlik san'ati musiqa san'atining alohida murakkab yo'nalishi bo'lib, musiq san'ati tarkibiga kiruvchi barcha yo'nalishlardan boxabar bo'lishlikni taqozo etadi, xatto balet, raqs, opera, xor, yo'nalishlarini ham o'z ichiga oladi.

Har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlik san'atkordan shaxsiy fikrga, keng dunyoqarashga va yuksak saviyaga ega bo'lishlikni, jamiyat va vatan ravnaqi uchun o'z xissasini qo'sha oladigan barkamol shaxs bo'lib yetishishlikni talab etadi. Bu albatta o'quvchidan ham o'qituvchidan ham yuksak ma'suliyat, sabr - qanoat, bardosh, tinimsiz izlanish, iroda kabi xislatlarni mustaxkam tarbiyalab borishlikni taqazo etadi.

yetuk mutaxassis, yetuk san'atkor bo'lish uchun faqat san'at sohasiga tegishli fanlarni o'rganish va o'zlashtirishni o'zi kifoya qilmaydi, keng dunyoqarashga ega mutaxassis bo'lib yetishishlikda umumiy ta'lim fanlarining o'rni beqiyosdir. Deylik, musiqa bilan yoki aynan cholg'u ijrochisi uchun boshqa fanlarning qanday bog'liklik tomonlari bor, ular nima uchun kerak degan savol tug'ilishi mumkin.

Fleyta (fortepiano, skripka, rubob, g'ijjak...) cholg'usiga cholg'uchisiga matematikani qanday aloqasi bor? Agar musiqa asarlarining taxliliga yaxshilab e'tibor qaratsak, boshidan oxirigacha sanoq, o'lchov kabi jarayonlardan iborat ekanligini ko'ramiz. Ijro etiladigan asarning o'lchovi, notalarning cho'zimi, oraliq masofalar, bo'linishlar kabi jarayonlarni bevosita matematika bilan bog'liqligi dalolatidir.

Fizikaga aloqadorlik tomonlariga tovushlarning tebranish chastotalari, (akustika), ijroga sarflanayotgan energiya, mexanik xarakatlar, tovushlarning tezligi, elektr bilan bog'liq cholg'ularda tok, tok kuchi, kuchlanish, amper, volt, diod, anod, katodlarni kiritish mumkin.

Ximiyaga aloqadorlik tomonlariga cholg'u asbobolari va uskunalarini qanday metalldan yasalganligi, metallarning tarkibi, zichligi, og'irligi kabilarni, ya'ni, cholg'u

asbobini yasalishida kumush, mis, alyuminiy, oltin, latun kabi metallar, ebonit, plastmassa yoki boshqa kauchuklardan foydalanganligini ko‘rsatish mumkin.

Biologiyaga aloqadorligiga yog‘ochdan yasalgan cholg‘u asboblarini cholg‘u asbobi bo‘lib yaratilishiga qadar kechgan biologik jarayonlar, danak (urug‘) dan niholni yorib chiqishi,o‘sib daraxtga aylanishi, vaqt o‘tishi bilan uning kesilishi, qurutilishi, yoki tabiiy holda qurib o‘tinga aylanishi,yoki chirishi oqibatida o‘z xossalari yо‘qotishi v.x.k. jarayonlarni kiritish mumkin.

Zoologiyaga aloqadorligi hayvonlarni terisi, suyaklari,ichaklaridan tayyorlangan cholg‘u asboblari, uskunalar misol bo‘la oladi. Masalan urma asboblar doira, baraban, litavralarni yasalishida teridan foydalanishligi, suyaklardan dastalar, mediatorlarni yasalishi,ichaklardan torlarni shakllanishi kabilar.

Tarixga aloqadorlik tomonlariga nazar tashlasak, cholg‘ularning kelib chiqishi, ijod qilgan kompozitorlar,ular tomonidan yaratilgan asarlar, tarixiy davrlarning san'atga bog‘liqligi yoki ta'siri kabi jarayonlarni qamrab oladi.

Adabiyotga bog‘liklik tomonlariga e’tibor qaratsak, musiqiy asarlarni proza yoki poeziya bilan aloqadorlik tomonlari, kompozitorning hayoti va ijodi, asarlarining mazmun va mohiyati kabi qirralarini o‘z ichiga oladi.

Geografiyaga aloqadorligi san'atkorning qaysi mintaqada tavallud topganligi, qaysi millatga mansubligi,iqlim sharoitlarini yaratilgan asarlar mazmuniga ta'siri, san'at asarlarida tabiat manzaralari va xodisalarini aks ettirilishi kabilarni kuzatishimiz mumkin.

Qisqacha xulosa qiladigan bo‘lsak barcha fanlar bir biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ularni kerakli-keraksiz, foydali-foydasiz, birinchi yoki ikkinchi darajali fanlarga ajratish nojoyizdir. Bu fanlar qanchalik chuqur egallab borilsagina yuqorida ta’kidlaganimizdek yetuk mutaxassislar yetishib chiqadi.

Zero zamonaviy yetuk mutuxassis-soha taraqqiyotining garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-son
2. Davlat ta’lim standartlari va ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Vazirlar maxkamasining qarori № 157 27.03.2024.
3. Bolalar musiqa va san'at maktablari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida. Vazirlar maxkamasining qarori №144 05.05.2016.
4. Z.I.Shodiev. Yoshlarni kasbga yo‘naltirish ishida qo‘llaniladigan metod va vositalar. 2021y.
5. Botirova Khilola Tursunbayevna. (2023). IN THE PRACTICE OF INSTRUMENTAL PERFORMANCE, STUDENTS ARE TAUGHT TO THINK INDEPENDENTLY AND FORMATION OF FEATURES OF

CREATIVITY. *Current Research Journal of Pedagogics*, 4(11), 99–103.
<https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-17>

6. Gaziyev, J. J. R. (2024). UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA MUSIQA MADANIYATI O'QITUVCHILARINING MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA NOANANAVIY METODLARDAN FOYDALANISHI. *Oriental Art and Culture*, 5(3), 414-419.
7. L.E.Tursunova. Yoshlar musiqa madaniyatini tadqiq etishning dolzarb vazifalari. 2023y.

